



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



### DOSTAYEVSKIYNING “OYDIN TUNLAR” ASARIDAGI QAHRAMON NIGOHIDA HAQIQIY ISHQ

**Shermo'minova Jasmina Shavkatovna**

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

*jshermominova@gmail.com*

Fyodor Dostoyevskiy dunyo adabiyotida inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini tasvirlay olgan yozuvchilardan biri sanaladi. Uning “Oydin tunlar” nomli qisqa qissasi ham shunday asarlardan bo‘lib, o‘quvchini chuqur tafakkur va his-tuyg‘ular girdobiga olib kiradi. Bu asar muhabbat, yolg‘izlik va orzularning go‘zal, ammo achchiq ohangida yozilgan she’riy ruhdagi hikoya bo‘lib, har bir satri qalbga bevosita ta’sir qiladi. Qissa bosh qahramon – yolg‘izlik girdobida yashayotgan, orzular dunyosida hayot kechirayotgan bir yigit haqida. U odamlar orasida yashasa-da, o‘zini begona va yolg‘iz his qiladi. Uning hayoti bir kuni tasodifan uchratgan Nastenka ismli qiz bilan butunlay o‘zgaradi. Bu uchrashuv g‘amgin yurakni iliqlik bilan to‘ldiradi, qalbda umid uyg‘otadi. Ularning oydin tunlardagi suhbatlari, yurakdan chiqqan so‘zлari inson qalbining eng nozik hislarini ifoda etadi. Ammo bu muhabbatning taqdiri ham o‘scha oydin tunlar kabi o’tkinchi bo‘lib chiqadi.

Dostoyevskiy ushbu asarda insoniy ehtiyoj – mehr, tushunish, eshitilish istagini mahorat bilan ko‘rsatadi. Yigitning ichki kechinmalari, xayol va haqiqat orasidagi kurashi, muhabbatga bo‘lgan umidi va undan ayrilish og‘rig‘i o‘quvchini larzaga soladi. Ayniqsa, oxirgi sahifalarda his etiladigan chuqur iztirob, yurakni zirqiratadi. Shunga qaramay, bu iztirob ichida ham bir go‘zallik, bir poklik bor – bu inson qalbining chinakam sevgi va orzular bilan yashashga qodirligidir. “Oydin tunlar” – bu oddiy muhabbat hikoyasi emas. Bu – qalb monologi, ichki dunyo sayohati, inson ruhining oydin, ammo yolg‘iz tunlardagi armonli kuyi. Har bir inson qalbida yashirin bir orzu, yuragining chekkasida esa aytilmagan armon yashaydi. “Oydin tunlar” ana shu ichki armonlarga yuz tutgan asardir — u seni jumjimador gaplar bilan emas, yurakdan chiqqan sadoqat bilan larzaga soladi. Yigitning Nastenkaga bo‘lgan tuyg‘ulari — bu oddiy sevgi emas, bu ruhni najotga chorlaydigan, qulash arafasida ushlab qoladigan muhabbat edi. Ammo ba’zan eng yorqin tuyg‘ular ham eng qorong‘u yakunlarga olib boradi. Xuddi shunday asarda yigitning hissiyotlaridagi kulminatsiyon nuqtani ushbu nutqidan bilib olsak bo`ladi: Men ranjirmidim Nastenka? Men sening tiniq, osoyishta baxtingga qora bulutni ravo ko`rarmidim? Senga achchiq qilib nozik dilingni dog`larmidim, saodatli daqiqalaringda toza yuragingni xunob bo`lib xafagazak tepishini xohlarmidim, sen u bilan birga mehrobga borgan paytlaringda qora sochlaringga tang`ilgan nafis gullardan birortasi ezilishini istarmidim... O, hech qachon, osmoning hamisha tiniq bo`lsin, yoqimtoy jilmayishlaring hamisha nurli va xotirjam bo`lsin, o‘zingdan behad minnatdor bo`lgan begona, yolg‘iz bir qalbga baxsh etganing oniy halovat va baxt uchun hamisha baxtli bo`l!”





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Bu qissa — bir insonning muhabbatda o‘zini topishi, va yana o‘sha muhabbatda o‘zini yo‘qotishidir. Shunday asarlar borki, ularni o‘qigach, jim bo‘lib qolasan. “Oydin tunlar” — ana shunday sukunatni taqdim etadi: u yuragingga so‘zsiz kiradi va uzoq vaqt u yerdan chiqmaydi. Ba’zan bir kecha butun umrga tatigulik iz qoldiradi. Ba’zan esa, bir necha daqiqa ichida butun hayoting o‘zgargandek tuyiladi. Dostoyevskiy bizga aynan shu haqiqatni juda sokin, ammo chuqur ohangda yetkazadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Oydin tunlar” Fyodor Dostayevskiy “Oltin Qalam” nashriyoti. Toshkent: 2023-yil
2. fll.jdpu.uz
- 3.oefen.uz
- 4.<https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo-adabiyoti-turkumi-sofokl.html>

